

MUSIQIY ASARDA DINAMIK BELGILAR VA MELIZMLARDAN  
SAMARALI FOYDALANISH

**Maxamatova Marjona Azamatjonovna**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti*

*"Vokal va cholg'u ijrochilig" kafedrası*

*Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi, 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada musiqiy asarlarda dinamik belgilardan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Dinamik belgilar musiqiy ifodaning muhim vositasi bo'lib, asarning badiiy mazmuni, hissiy ta'siri va obrazlar tizimini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda forte, piano, crescendo, diminuendo kabi dinamik vositalarning ijrochilik jarayonidagi o'rni tahlil qilinib, ularni to'g'ri qo'llash usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, dinamik belgilardan oqilona foydalanish musiqachining ijro mahoratini oshirish, tinglovchiga estetik ta'sir ko'rsatish va asarning mazmunini to'liq yetkazishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *dinamika, dinamik belgilar, musiqiy asar, ijrochilik mahorati, forte, piano, crescendo, diminuendo, musiqiy ifoda, badiiy talqin, musiqiy obraz, ijro san'ati.*

Musiqada tovushning eshutilish kuchi turli darajalarda namoyon bo'ladi va bu holat dinamik belgilar orqali ifodalanadi. Dinamik belgilar musiqiy asarning ifodaviyligini kuchaytirib, ijroning emotsional ta'sirini oshiradi. Masalan, kuyning ko'tariluvchi yo'nalishi tovush kuchining asta-sekin ortib borishiga olib kelsa, pasayuvchi yo'nalish esa uning susayishini bildiradi.<sup>18</sup>

Musiqada keng qo'llaniladigan dinamik belgilar quyidagilardan iborat:

a) Doimiy kuchlilik va pastlik darajasini ifodalovchi belgilar:

forte (f) — kuchli

fortissimo (ff) — juda kuchli

mezzo forte (mf) — o'rtacha kuchli


piano (p) — past

pianissimo (pp) — juda past

mezzo piano (mp) — o'rtacha past


b) Tovush kuchining o'zgarishini bildiruvchi belgilar:

crescendo — pionodan fortega qarab kuchayish



<sup>18</sup> Abdurashidov, A. "Musiqqa nazariyasi asoslari". Toshkent: O'qituvchi. 2018-yil

diminuendo – fortedan pionoga qarab pasayish



a) Baland ovozliqlik darajasini o'zgartirish maqsadida qo'llaniladigan dinamik belgilar:

b) sforzando - sf ayrim tovushlarning keskin zarbi.

meno forte - sal kuchli

Musiqa ijrochiligida gamma, etyud hamda turli texnik mashqlar ustida muntazam ishlash dutorchi uchun muhim tayyorgarlik vazifasini bajaradi. Bunday mashqlar ijrochining qo'l harakatlarini erkinlashtiradi, tovush sifati va texnik imkoniyatlarini rivojlantiradi<sup>19</sup>. Ayniqsa, dutor chalishda pardalar orasida silliq va ravon o'tish ko'nikmasini hosil qilishda gammalarning o'rni katta hisoblanadi. O'quvchi ayrim tovushlarni aniq yoki kuchli chiqara olmayotgan bo'lsa, shu kamchiliklarni gamma va maxsus mashqlar orqali bartaraf etish mumkin.

Etyudlar esa ijrochining texnik hamda badiiy imkoniyatlarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ular dutor ijrosida uchraydigan turli usullarni mukammal egallashga yordam beradi. Talaba o'rganayotgan badiiy asarlar bilan bir qatorda murakkabroq etyudlarni ham mashq qilishi foydali hisoblanadi. Chunki etyudlar qo'l harakatining tezligi, aniqligi va chidamliligini oshiradi. Ba'zi etyudlar nafaqat mashq sifatida, balki sahna yoki konsert ijrosi uchun ham mos bo'ladi.<sup>20</sup>

Gama mashqlari o'ng va chap qo'l barmoqlarining harakatchanligini rivojlantiradi. Shu bilan birga, tovushni tiniq va ravshan chiqarish, lad va tonalliklarni his qilish qobiliyatini mustahkamlaydi. Boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilar uchun gammalar notalarni tezroq o'zlashtirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Gammalarni ijro etishda tovushlarning ritmik tekisligi, yuqoriga va pastga harakatining ravonligi, tovush kuchining asta-sekin ortishi yoki kamayishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuchlilik darajasini ifodalovchi belgilar ham ijrochilikda katta rol o'ynaydi. Masalan, poco a poco diminuendo - tovushni asta - sekin pasaytirib borishni bildiradi. Più forte belgisi tovushni yanada kuchliroq ijro etishni anglatadi, meno forte esa sal kuchsizroq yoki yumshoqroq ijroni ko'rsatadi. Sforzando (sf) belgisi ayrim tovush yoki akkordni keskin urg'u bilan chalishni talab qiladi. Ushbu belgilarni to'g'ri qo'llash ijroga badiiy ta'sirchanlik va ifodalilik baxsh etadi.<sup>21</sup>

### **Dutor ijrochiligida milliy bezaklar va melizmatik usullarning o'rni**

<sup>19</sup> Jabborov, A. "Musiqa savodi va nazariyasi". Toshkent: Musiqa. 2005-yil.

<sup>20</sup> Sposobin, I. V. "Elementarnaya teoriya muzyki". Moskva: Muzyka. 1984-yil.

<sup>21</sup> Raximov Sh. "Dutor Darsligi". Musiqa nashriyoti, T., 2010 yil.

Dutor san'atini chuqur egallash ijrochidan nafaqat texnik tayyorgarlikni, balki musiqiy did, eshitish qobiliyati va ijodiy yondashuvni ham talab qiladi.<sup>22</sup> Har bir ijrochi kuy mazmunini tinglovchiga yetkazishda turli bezak va melizmatik usullardan foydalanadi. Ayniqsa, milliy ijrochilik an'analarida qo'llanadigan nola, qochirim, kashish va boshqa bezaklar dutor sadolarining yanada ta'sirchan chiqishiga yordam beradi.

Musiqadagi bezaklar asarning badiiy ifodasini boyituvchi vosita hisoblanadi. Ular kuyga nafislik, ohangdorlik va milliy ruh baxsh etadi. Dutor ijrochisi ushbu usullarni to'g'ri qo'llay olsa, asarning xarakteri va kayfiyatini yanada yorqin ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Melizmatik bezaklarning biri bo'lgan qisqa bezak tovushlar asosiy notadan oldin juda tez ijro qilinadi. Bunday usullar kuy harakatini jonlantirib, ijroga yengillik beradi. Ayrim hollarda ular ijrochi mahoratini namoyish etuvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Yana bir keng qo'llanadigan usul - asosiy tovush bilan unga yaqin yordamchi tovushning tez-tez almashinib ijro etilishidir. Bu usul musiqaga hayajon va harakatchanlik baxsh etadi. Nota yozuvida u maxsus qisqartma belgilar orqali ko'rsatiladi. Dutor ijrochiligida tezkor bezaklarning boshqa turi ham mavjud bo'lib, unda asosiy tovush yordamchi tovush bilan qisqa va ravon tarzda almashadi. Ushbu usullar kuy ohangini boyitadi hamda ijroning jozibadorligini oshiradi.<sup>23</sup>

Milliy ijrochilikda alohida ahamiyatga ega bo'lgan usullardan biri - tovushlarni sirg'antirib ijro etishdir. Bu usulda ijrochi bir pardadan ikkinchisiga keskin uzilishsiz o'tadi. Natijada kuy mayin va ta'sirchan eshitaladi. Ayniqsa, lirik xarakterdagi asarlarda ushbu usul keng qo'llanadi.

Milliy bezak va melizmatik usullar dutor ijrochiligining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularni puxta o'zlashtirish ijrochining texnik mahoratini oshirish bilan birga, musiqiy asarning mazmunini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Shu sababli dutor ta'limida bunday usullarni o'rganish muhim bosqichlardan biri sanaladi

**Bidratma** - (Yevropa musiqiy terminologiyasida vibratsiya deb yuritiladi) tovushni tebrantirib, unga jonli va ifodali tus berish usulidir. Rubob ijrochiligida bu usul chap qo'l barmoqlarini bosilgan pardada tez va bir maromda ko'ndalang harakatlantirish orqali hosil qilinadi. Notada esa u to'liqinsimon chiziqcha bilan belgilanadi. O'zbek xalq kuylarida turli xil zarb usullari keng qo'llaniladi. Ular orasida oddiy yakka zarb, qo'sh zarb, teskari zarb, ufor zarb, bilak zarb hamda parrang kabi ijro usullari mavjud bo'lib, bularni talabalarga bosqichma-bosqich tushuntirib, amaliy ko'nikma sifatida singdirish muhim hisoblanadi.

## XULOSA

Musiqiy asarda dinamik belgilardan samarali foydalanish ijrochilik san'atining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Dinamik vositalar yordamida asarning mazmuni, hissiy ta'sir kuchi va badiiy ifodaviyligi yanada yorqin namoyon bo'ladi. Ijro jarayonida forte, piano, crescendo, diminuendo kabi dinamik belgilarning o'rinli qo'llanilishi musiqiy

<sup>22</sup> Aleyev, V. V. "Musiqi nazariyasi va tahlili". Toshkent: Tafakkur. 2012-yil.

<sup>23</sup> Karomatov, F. (2007). Musiqi nazariyasining amaliy asoslari. Toshkent: Fan.

fikrning mantiqiy rivojlanishini ta'minlaydi hamda tinglovchida chuqur estetik taassurot uyg'otadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dinamik belgilardan ongli va maqsadli foydalanish ijrochining texnik mahorati bilan bir qatorda uning badiiy tafakkuri va talqin imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu bois musiqiy ta'lim jarayonida dinamik vositalarni puxta o'rganish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dinamik belgilar musiqiy asarning badiiy qimmatini ochib beruvchi asosiy ifoda vositalaridan biri bo'lib, ulardan samarali foydalanish ijro sifatini oshirishga, asarning mazmunini to'laqonli yoritishga va musiqiy san'atning estetik ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurashidov, A. "Musika nazariyasi asoslari". Toshkent: O'qituvchi. 2018-yil.
2. Jabborov, A. "Musika savodi va nazariyasi". Toshkent: Musika. 2005-yil.
3. Sposobin, I. V. Elementarnaya teoriya muzyki. Moskva: Muzyka.
4. Raximov Sh. "Dutor Darsligi". Musika nashriyoti, Toshkent: 2010 yil.
5. Aleyev, V. V. "Musika nazariyasi va tahlili". Toshkent: Tafakkur. 2012-yil.